

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14559512>

YOSHLARNI OMMAVIY MADANIYAT TA'SIRIDAN HIMOYA QILISHNING ASOSIY VOSITALARI

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM o'qituvchisi

jumayevashaxlo507@gmail.com

Sodiqova Shahzoda Sirojiddin qizi

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM

Xorijiy tillar kafedrası 1-kurs talabasi,

s.sodiqova.06@mail.ru

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada “ommaviy madaniyat”ning falsafiy, madaniy ildizlari borasida, uning mamlakatimizga kirib kelishi va yoshlar tarbiyasiga xatarli taxdidi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: “Ommaviy madaniyat”, milliy qadriyat, axborot xuruji, mafkuraviy immunitet, ekstremizm, terrorizm.

ОСНОВНОЕ СРЕДСТВО ЗАЩИТЫ МОЛОДЕЖИ ОТ ВЛИЯНИЯ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ. В статье говорится о философско-культурных корнях «массовой культуры», ее проникновении в нашу страну и ее опасной угрозе молодежному образованию.

Ключевые слова: «Народная культура», национальная ценность, информационная атака, идеологический иммунитет, экстремизм, терроризм.

THE MAIN MEANS OF PROTECTING YOUNG PEOPLE FROM THE INFLUENCE OF MASS CULTURE

ABSTRACT. *The article discusses the philosophical and cultural roots of "mass culture", its penetration into our country and its dangerous threat to youth education.*

Key words: *"Folk culture", national value, information attack, ideological immunity, extremism, terrorism.*

Kirish. “Ommaviy madaniyat” milliy madaniyatlarning kushandasi bo‘lib, u madaniy xilma-xillikni xushlamaydi, uning asl maqsadi – bu olamni bir xil rangda ko‘rishdir. Garchi ommaviy madaniyat okean ortida yagona davlat shakllanishida qo‘l kelgan bo‘lsada, bugunga kelib uning G‘arbda yuz berayotgan axloqiy tanazzulning muqaddimasi ekani ham ayonlashdi. So‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida “ommaviy madaniyat” o‘sha jamiyatlarni sun‘iy, soxta ideallar bilan chalg‘itibgina qolmay, odamzot uchun muqaddas bo‘lgan tabiiy juftlikni ham inkor etdi, g‘ayriinsoniy axloq va munosabatlarni qonuniylashtirdi va buni, demokratiyaning oliy namunasi deya ko‘z-ko‘z qildi. Ommaviy madaniyatning shiddat bilan rivojlanishida tijorat qoidalari ham kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. Har qanday zamon va makonda barcha narsalardan foyda ko‘rishga tayyor dastyorlar topilishi uzoqni ko‘zlab zimdan ish ko‘ruvchi ommaviy madaniyatchilarning mushkulini oson qiladi, ishini jadallashtiradi. Bunday mol-dunyoga sig‘inuvchi dastyorlar faqat bugunni, yana ham aniqrog‘i hozirni ko‘radi va tan oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Zamonaviy texnika va texnologiyalarning rivojlanishi tufayli “ommaviy madaniyat” keng tarqalmoqda. Endilikda odamlarning ayrim guruhlari an’anaviy madaniyatni –axloq-odobni, urf-odatlarini tan olmay qo‘ydi. Shu kungacha “ommaviy madaniyat”, deganda o‘zida axloqsizliklarni jamlagan behayolliklarni tushunardik. Endilikda ommaviy madaniyat qirralari iqtisodiyot, siyosat va mafkurada ham ko‘zga tashlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev globallashuv sharoitida ma’naviyatga qarshi

turli xurujlar haqida gapirar ekan: "Bugungi kunda yon-atrofimizda diniy ekstremizm, terrorizm, giyovandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" degan turli balo-qazolarning xavfi tobora kuchayib borayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bu so'zlarning chuqur ma'nosi va ahamiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi", deb alohida ta'kidlaydi. [1].

Tabiiyki, "ommaviy madaniyat" degan niqob ostida axloqiy buzqlik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, uning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik anana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan tahdidlar odamni tashvishga solmay qo'ymaydi. Amerikalik faylasuf va yozuvchi Duayt Makdonald o'zining "Ommaviy madaniyat nazariyasi" maqolasida bu haqda shunday yozadi: "...Ommaviy kommunikatsiya tizimi orqali ommaviy madaniyat jamiyat a'zolarining mutlaq ko'pchiligiga amal qiladi, inson dunyosining barcha ko'rinishlarida: ma'lum turmush tarzi va kiyim uslubidan tortib, turning ma'lum cheklovlarigacha; mafkuraviy tamoyillarga rioya qilishdan yaqinlar o'rtasidagi maxsus munosabatlargacha o'z qoidalarini o'rnatadi. [2]. Ma'lumki, olomonga bo'ysunuvchi bu turdagi odamlar boshqalardan farq qiladi. Psixologlar anchadan beri olomon ruhiyatini o'rganishga urinadi, ammo hamon uning ildiziga yetib borilmagan. "Ommaviy madaniyat" bu xalq madaniyatining ma'lum qismi emas, balki omma, ya'ni olomonga mo'ljallangan madaniyatdir. Tarixdan ma'lumki, bir guruh odamlar (olomon) tomonidan uyushtirilgan isyonlar turli mojarolarni keltirib chiqargan hamda mamlakat va xalqlar taqdirini butunlay o'zgartirib yuborgan. Biz buni 1917-yilgi qonli inqilob, so'ngi yillarda kuzatilayotgan Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi voqea-hodisalardan ko'rib-bilib turibmiz. Olomon atrofdagilarning gap-so'zlarini deyarli qabul qilmaydi. Chunki u faqat his-hayajonga berilgan bo'ladi. Faqat o'zi tanlagan yo'l to'g'ri deb o'ylaydi.

Tahlilchilarning fikricha, inqirozli daqiqalarda sahnada paydo bo'ladigan "ommaviy odam" o'zini hamisha agressiv tutadi. O'zini har qanday madaniyatdan uzoq tutuvchi olomon hamisha xavflidir. [3].

NATIJALAR. Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda. Yangi zamon "ommaviy madaniyat" mahsulotlarining kutilgan xaridoriga aylandilar. [4]. Ular uchun bu mahsulotlarning o'zimizniki yoki xorijniki ekanligi unchalik ham ahamiyatli emas edi va hamon shu jarayon davom etmoqda. "Jahon to'ri" deb nom olgan internet tizimi orqali "ommaviy madaniyat" mahsulotlari hech qanday to'siqsiz mamlakatimizga kirib kelmoqda va ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng tarqalmoqda.

MUHOKAMA. Ma'lumki, o'smirlar, yoshlar, talabalar yangilikka intiluvchan, tengqurlariga havasmand, modaparast, xorij standartlarini oson qabul qilishga ruju qo'ygan bo'ladi. Ulardagi ana shu ijtimoiy-psixologik holat kirib kelayotgan shubhali qadriyatlarga tanqidiy yondashuvni cheklab qo'ymoqda. Maqbul yoki nomaqbulligi haqida muayyan fikr-mulohazasi bo'lmagan yoshlar hayotimizga, milliy mintalitetimizga mos kelmaydigan mafkuraviy mahsulotlarni matbuot orqali qabul qilishga oshiqmoqda. "Ommaviy madaniyat" tashqi ko'rinishi, oson o'zlashtirilishi bilan ularni qiziqtirmoqda. [5]. Turfa g'oya va ramzlar zamonaviy modalar ommaviy madaniyat mahsulotlari yoshlardan chuqur fikr-mulohaza yuritishni talab etmaydi, har xil hayot tashvishlaridan, turmush muammolaridan "xalos" etadi, jasadni va ruhni dam oldirish, ularni o'qishga, bilim olishga emas, balki o'ynab-quv nab, "yashab olish"ga chaqiradi. Aslida "ommaviy madaniyat"ning, uni tarqatayotganlarning ham asl maqsadlari shundan iborat. Mamlakatimiz aholisining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etishini va "ommaviy madaniyat" mualliflari aynan ana shu auditoriyani nazarda tutayotganini e'tiborga olsak, vazifalarimiz mas'uliyati aniq ayon bo'ladi.

Ommaviy madaniyat inqilobiy xususiyat va dinamiklikka ega bo'lib, sinflar, an'analar va didlar o'rtasida har qanday to'siqlarni buzadi; u barcha madaniyatlararo xususiyatlarni eritib yuboradi, o'z yo'lidagi hamma narsani aralashtirib yuboradi. Shu bilan birga, barcha qadriyatlarni yo'q qilishi ham mavjud. Madaniyatda

gomogenizatsiya (madaniy bir xillik, qo'shilib ketish) va undan keyingi madaniy "kolonizatsiya" shunday sodir bo'ladi[6].

“Ommaviy madaniyat” G'arb dunyosida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni G'arbda «populyar» yoki qisqartirilgan holda, «pop-kultura» (ya'ni «ommaviy madaniyat») deb atashadi. Garchi «madaniyat» deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-ma'nosiga, maqsad-niyatiga ko'ra «ommaviy madaniyat» chinakam madaniyatning kushandasidir. Mutaxassislar (faylasuf va sotsiolog olimlar)ning fikricha, hali ilm-fanda «antikultura» («g'ayrimadaniyat») degan ilmiy tushuncha shakllanmaganligi uchun «Pop (ommaviy) madaniyat» tushunchasi, nochorlikdan qo'llanilmoqda. Chunki, «ommaviy madaniyat», aslida madaniyatsizlik, ya'ni ma'naviyatsizlik va axloqsizlik sinonimidir. «Ommaviy madaniyat» shu boisdan, eng avvalo, yuksak iste'dod va o'lmas ma'naviy-axloqiy g'oyalar bayroqdori bo'lgan mumtoz madaniyatga, san'atga, uning boyliklariga qarshi tish-tirnog'i bilan kurashib, uni inkor etib kelyapti. G'arb dunyosining o'zidagi faylasuflar, sotsiolog olimlar, «Bizga «To'qqizinchi simfoniya» (Betxoven) kerak emas!» yoki «Mona Liza»ni loyga qorishtiramiz!» kabi jaholatparastlikka asoslangan xitoblar «ommaviy madaniyat» tarafdorlari va muxlislarining dasturiy qarashlari negizini tashkil etadi, deb yozadilar. [7]. Taassufli jihati shundaki, gohida g'oyatda iste'dodli insonlar ham «ommaviy madaniyat» targ'ibotchilarining qutqusiga uchrab, uning tegirmoniga suv quymoqda. Masalan, rassom Salvador Dali Leonardo da Vinchining «Mona Liza» («Jakonda») asarini kulgi qilib, Mona Liza lablari ustiga mo'ylov chizgan va «Mo'ylovli Jakonda» asarini yaratgan. Tadqiqotchilarning fikricha, mana shunday «achchiq istehzoli, qora mazmunli kulgi» - «ommaviy madaniyat» faoliyatining eng yetakchi belgilaridan biridir. «Ommaviy madaniyat» namoyandalari qora, zaharxanda, behayo kulguni «isyon ifodasi» deb bilishadi. «Nimaga qarshi isyon» degan savol tug'iladi. Agar «pop-madaniyat» dunyoga «ehson» eta-yotgan «pop-art» («tasviriy san'at» desa ham bo'ladi), «pop-muzika», «pop-adabiyot» natijalariga qarab hukm yuritadigan bo'lsak, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni

mensimaydi.. Ular uchun ezgulikning o‘zi yo‘q. Jumladan, san‘at - alohida iste‘dodlar tomonidan yaratiladigan ma‘naviy boylik, mo‘jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari «pop-madaniyat» tarafdorlarining o‘ta darajada g‘ashini keltiradi. Ularcha, hamma san‘atkor bo‘lishi mumkin. Hamma narsa san‘at atalishi mumkin. «Pop-art» - ommaviy san‘at shu xulosa manbaida vujudga kelgan. «Pop-art»chilarning dasturiy qarashi shundayki, ular insonni emas, aksincha, narsalar va buyumlarni e‘zozlashadi; ma‘naviy dunyoni emas, maishiy-iste‘molchilik his-tuyg‘ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar. Ularning ma‘naviy pozitsiyasi - ma‘naviyatni o‘ldirish va «narsalarga qullik»ni rag‘batlantirishdir. Amerikaning taniqli adibi R. Bredberi aytganidek, «ommaviy madaniyat» maktabidan o‘tgan avlod uchun hayotning ma‘nosi - avtomobil, televizor, muzlatkichga ega bo‘lish. Agar televizor ikkita bo‘lsa, ularga shuncha yaxshi.

Xulosa. Biz bugun yurtimizda yangi hayot barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e‘tibor berishimiz lozim. «Ommaviy madaniyat» tahdidi, bugungi zamon voqelikka ochiq ko‘z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo‘lgan, tobora kuchayib borayotgan ma‘naviy tahdid va xatarlarni to‘g‘ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etadi. Shu bois yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shafqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida biryoqlama va soxta tasavvur bo‘lmasligi lozim. Unutmasligimiz kerakki, ogoxlik va xushyorlik, mafkuraviy yetuklik va manaviyatlilik davrimizning talabidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi. «Xalq so‘zi», 04.08.2017.
2. Ибрагимов, С. (2022). ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА “ОММАВИЙ МАДАНИЯТ” НИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИГА ТАХДИДИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 397-403.
3. 1. Jumayeva Sh.S.Eshboboyeva M. THE USE OF PEDAGOGICAL METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL CREATIVITY IN MODERN EDUCATION.2023..73-79 pp. Vol. 1. Issue 3.Conference of Finlandy.
4. Ш.С.Жумаева. Ахборот хавфсизлиги ва мафкуравий ҳимоя. Educational Research in Universal Sciences, 2023/6/24.286-290b.
5. Ю.Х.Манзаров, Ш.С.Джумаева. СОЦИОДИНАМИКА ДУХОВНОСТИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЁЖИ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов. 2016г. № 1.стр 41-42.
6. Жумаева Ш. Семья и воспитание личности в творчестве Алишера Навои. Традиционнке культуры народов мира :семья и семейные ценности в системе общественных отношений. НИИ БелГУ. 23 март. 2024 г.200-204 стр.
7. Жумаева Ш.С. ИСЛАМИЗАЦИЯ КАВКАЗА И ВЛИЯНИЕ НА ПОЛИТИЧЕСКУЮ ЖИЗНЬ ОБЩЕСТВА. SOUTH CAUCASUS IN THE CONTEXT OF MODERN GLOBAL CHALLENGES.Baku, Azerbaijan. May 3, 2024 y.158-160стр.